

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi**

Buxoro davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti

Tuproqshunoslik va geografiya kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: “Tabiiy geografiyaning
boshlang`ich kursi (5-sinf)”da standart va
nostandart testlardan foydalanish**

5140600 – Geografiya ta'lim yo'nalishi

bitiruvchisi: Sa'dullayeva Kumush G'aybullo qizi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Nematov A.N.

Himoyaga tavsiya etildi: _____ “ ” may 2019 yil
(imzo)

Buxoro – 2019

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Test topshiriqlari tuzish va uning uslubiy jihatlari	
1.1 Test topshiriqlari tuzish tartibi, talablari va vazifalari	7
1.2 Test topshiriqlarining tasnifi va qiyinchilik darajasi mezonlari	15
1.3 Standart va nostandart testlar - pedagogik nazorat va baholash texnologiyasi sifatida	23
II bob. Tabiiy geografiyaning boshlang`ich kursida standart va nostandart testlardan foydalanish uslubiyoti	
2.1 Mavzuni mustahkamlashda standart va nostandart testlardan foydalanish	29
2.2. Nazorat ishlarida standart va nostandart testlardan foydalanish	40
2.3 Pisa testlari va ulardan o`quv jarayonida foydalanish	56
Xulosa va takliflar	63
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	66
Ilovalar	69

KIRISH

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...”

Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlari hozirgi davr pedagoglaridan rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma‘naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashni talab etmoqda. Bu vazifani bajarish ta‘lim jarayonini, uning mazmun, shakl va metodlarini tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Bu esa o‘qituvchidan doimo ijodkor bo‘lishga, taraqqiyot omillarini hisobga olib ta‘lim amaliyotida qo‘llanilayotgan yangi va ilg‘or fan yutuqlaridan keng foydalanishni taqazo etadi.

Ta‘lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddatli axborot olamida to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, axborotlardan yosh avlod ta‘lim-tarbiyasida unumli foydalana oladigan, izlanuvchi, ijodkor o‘qituvchilarni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. Ta‘lim mazmuniga kiritilgan yangiliklar, mukammal dasturlar, darsliklar va ta‘lim standartlari har qancha yaratilmasin, ularni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy qilish o‘qituvchiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har

tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspekstiyasining Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi o'z navbatida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish, ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish va boshqa vazifalar yuklatildi.

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspekstiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment PISA 2021) ishtirok etish to'g'risidagi kelishuvga erishildi.

PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro tadqiqot dasturi O'zbekistonda o'quvchilarning savodxonligini o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar ko'rinishida baholaydi. Bu tadqiqotlar O'zbekistonda 2021 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Tadqiqotlarda o'quvchilarning "hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari hamda tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy fanlar yo'nalishdagi va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi. Tabiiy fanlar tarkibida geografiya fani ham mavjud.

Bitiruv malakaviy ishning **dolzarbligi** shundaki hozirgi vaqtda geografiya ta'limi oldida turgan dolzarb masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu matnini

tushunmay xotiraga joylashtiradigan o'quvchini emas, balki shu mavzuning mohiyatini tushunadigan, mavzuda o'rganilgan obyektlarni aniqlab, ularga ta'rif bera oladigan, ma'lumotlarni qayta ishlay oladigan, o'z fikrini bayon eta oladigan, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntira oladigan, mazkur jarayon, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsata oladigan o'quvchini tayyorlashdir.

Bu umumiy maqsadga erishish faqat geografiya ta'limi oldida turgan vazifa emas, zero boshqa umumta'lim fanlarining ham asosiy maqsadidir. Geografiya ta'limining bu vazifani amalga oshirishda boshqa fanlardan farqli jihati, maqsadni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarda geografik dunyoqarashni shakllantirib, rivojlantirib borishidadir. Shunda globallashtirish davrida, axborot olamida biz tayyorlagan o'quvchi, ta'lim oluvchi, talaba yoki bo'lg'usi qaysidir soha mutaxassisi voqealikka real ko'z bilan qarashi, to'g'ri munosabat bildirishi mumkin.

Bunda geografiya ta'limi oldida turgan vazifa ana shu xalqaro tadqiqotlarga o'quvchilarni bosqichma-boqich tayyorlab borishdir. Bunda faqatgina standart testlardan emas balki standart testlar bilan birga nostandart testlar foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Nostandart testlardan foydalanish birinchi navbatda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, mavzuda o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ishlay olish, o'z fikrini bayon eta olish, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntira olish, mazkur jarayon, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsata olish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi. Shu bilan birga nostandart test topshiriqlarini tuzish o'qituvchida ijodkorlik (kreativlik)ning shakllantirib, rivojlantiradi, o'z ustida ishlashga, o'zining ishiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga olib keladi. Ayni paytda o'qituvchiga mavzuni o'qitishda yo'l qo'ygan kamchiliklarini aniqlashga imkon beradi hamda iqtidorli o'quvchilarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda umumta'lim maktablarining 5-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi" da o'rganiladigan

mavzularni mustahkamlashda standart va nostandart test topshiriqlarini tuzish, uni qo'llash, afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatish **ishning maqsadi** sifatida belgilandi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi va maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Test topshiriqlari tuzish tartibi, talablari va vazifalari bilan tanishish;
- Test topshiriqlarining tasnifi va qiyinchilik darajasi mezonlarini o'rganish;
- Standart va nostandart testlar - pedagogik nazorat va baholash texnologiyasi sifatida tahlil qilish;
- Mavzuni mustahkamlashda standart va nostandart testlardan foydalanish bo'yicha test topshiriqlari ishlab chiqish;
- Nazorat ishlarida foydalaniladigan standart va nostandart test topshiriqlarni ishlab chiqish;
- Pisa testlari va ulardan o'quv jarayonida foydalanish uslubiyotini tahlil qilish;

Bitiruv malakaviy ishni bajarishda geografik taqqoslash, tizim-tarkib, mantiqiylik, kartografik kabi **tadqiqot usullaridan** foydalandim.

Bitiruv malakaviy ishni kirish, 2 bob, 6 qism hamda xulosa va takliflardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining **amaliy ahamiyati** shundan iboratki tuzilgan nostandart test topshiriqlaridan umumta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitishda namuna sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishinni bajarish davomida umumta'lim maktablari darsliklarini, pedagogika, metodikauf doir adabiyotlarni, ilmiy maqolalar, internet materiallarini tahlil qildim. Xususan, Buxoro davlat universiteti geografiya bo'limida olgan to'rt yillik bilimlarimga tayandim. Ayniqsa, bitiruv malakaviy ishini yozishda umumiy tabiiy geografiya, geografiya o'qitish metodikasi fanlaridan olgan bilim va ko'nikmalarim qo'l keldi. Shu bois, menga ushbu dargohda tahsil bergan barcha ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman.

I BOB. TEST TOPSHIRIQLARI TUZISH VA UNING USLUBIY JIHATLARI

1.1 Test topshiriqlari tuzish tartibi, talablari va vazifalari

Pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi boʻlgan test topshiriqlari barcha oʻquv fanlarida bilimlarni tekshirishning asosiy usuli boʻlib qoldi, ayniqsa, XX asrning 90–yillaridan boshlab mamlakatimiz taʼlim tizimiga kirib kela boshladi. Shuni ham aytib oʻtish lozimki, oʻsha vaqtlarda deyarli barcha fanlarda ham test topshiriqlarini tuzish boʻyicha aniq bir metodik qoʻllanmalar va koʻrsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkashliklarni keltirib chiqardi. Testologiya, yaʼni oʻqitish maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash pedagogik texnologiyalarning oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu shundan dalolat beradiki Oʻzbekistonda yangi pedagogik texnologiyalarni qoʻllash uning oxirgi bosqichidan boshlangan.

Test inglizcha “test” soʻzidan olingan boʻlib, “tekshirish, sinash, nazorat qilish” maʼnolarini anglatadi. Dastlab testlar psixologiya fanida kishining fikrlash qobiliyati, alohida, muhim imkoniyatlari, irodasini va boshqa tomonlarini aniqlashda qoʻllaniladigan bir qolipdagi soʻzli yoki rasm shaklida topshiriqlardan iborat boʻlgan.

Bunda test deganda shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatlari, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini tekshirishda qoʻllaniladigan qisqa standart mashqlar tushunilgan. Ijtimoiy amaliyotda test odamning qanday kasb-hunar egallashi mumkinligi, uning kasbga layoqati yoki layoqatsizligini, isteʼdodli yoki aqli zaifligini aniqlashda, muayyan hamkorlikdagi faoliyatga shaxslarni saralashda keng qoʻllaniladi. Uning yordamida tajribaning ilmiylik darajasi, kafolatligi, tekshiriluvlarning mahorati, qiziqishi, toʻplangan amaliy maʼlumotlarning haqqoniyligi, ishonchlilik koʻrsatkichi bir necha mezonlarga asoslanib tahlil qilinadi. Hozirgi vaqtda test topshiriqlarida nafaqat pedagogika (taʼlim) da balki tibbiyot, texnika, menejment va boshqa qator sohalarda ham muvaffaqiyatli qoʻllanib kelinmoqda. Agar test texnologiyasining tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak testning nazariy asoslarini ingliz psixologi

Fransis Galton 1883-yilda ishlab chiqqan. «Test» terminini birinchi marta amerikalik psixolog Jeyms Kettell 1890-yilda qo'llagan. Fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi T. Simon insonning aqliy o'sishi va iste'dodi darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin aqliy testlar nazariyasi keng yoyildi. Amerikalik L. Termen insonlarning aqliy qobiliyatlarini uzluksiz 50 yil davomida testlar yordamida o'rgangan.

Niderlandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Daniya, Fransiya, Isroil, Finlyandiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va b. rivojlangan davlatlar test bobida yetakchi hisoblanadi. Mazkur ro'yxatdan aholisining hayot tarzi yuqori bo'lgan mamlakatlarning joy olishi tasodifiy emas. Bu yerda test qo'llanishi ta'lim sifatiga ta'sir etishi boshqaruv sifati bilan bog'liq bo'lsa, sifatli boshqaruv, o'z navbatida, aholi turmush darajasining sifatini oshirishga zamin yaratadi.

Hozirgi davrda testlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- maqsadga erishuv testlari - bilimlarni o'lchashga qaratilgan;
- aqliy testlar - zehn, aql-idrok, aql-zakovat, iste'dodni aniqlashga yo'naltirilgan;
- ijodiyot testlari - ijodkorlik, bunyod etishlik darajalarini tekshiruvchi;
- mezoniy mo'ljal testlari -o'quv yoki kasbiy bilimlar va topshiriqlarni qaysi ko'nikma, malaka, hatti-harakat tizimi orqali o'lchash mumkinligi;
- shaxsga oid testlar xususiyat, bezovtalanish, sifat, fazilat, xislatlarni o'lchashga aloqador;
- proeksiyaviy testlar -tashqi ta'sirsiz shaxs o'zini o'zi oshkor qilishiga mo'ljallangan va boshqalar.

Testlashtirish - testlar yordamida bilim va ko'nikmalarni tekshirish usulidir. Test insoniyat tarixidagi qadimgi jarayonardan hisoblanadi. Qadimgi Xitoyda fuqarolik xizmatiga kiruvchi amaldorlar shu usul yordamida ishga olingan. Ik bor «aqliy test» atamasi 1890-yil amerikalik psixolog Jeyms Makkin Kattel maqolasida qo'llanilgan bo'lib, unda kollej o'quvchilarining intellektual darajasini aniqlash uchun har yili qo'llaniladigan turkum testlar tavsiflangan. Fransuz

psixologi A. Bine ham o'z tadqiqotlarini aqliy salohiyatni aniqlash usullariga bag'ishladi.

1920–yildan boshlab AQSHning ayrim shtatining maorif bo'limi testlar bo'yicha imtihon olish tajribasini boshladilar va 1930-yillardan boshlab bunday usul AQSHning hamma maktablarda qo'llanila boshlandi. Testlar tuzish bo'yicha kooperativ xizmati tashkil qilindi. Uning asosiy vazifasi, AQSHning maktabi va kollejlarda o'quvchilar o'zlashtirishni ko'rsatilgan talablar asosida aniq baholash mezonlari bilan ta'minlash edi. Keyinchalik bu xizmat ta'lim testlari xizmatiga aylantirildi. Imtihonlar bo'yicha kengash test xizmatlarning ma'lumotlarini kollej va universitetlarga kiruvchilarning bilimni tekshirishda ishlatila boshlandi.

Sobiq Ittifoqda bilim va malakalarni test orqali tekshirish noilmiy deb qaralgan, ammo 70-yillardan boshlab test usuli maktablarda yana asta-sekin tajriba sifatida olimlar va ilg'or o'qituvchilar tomonidan qo'llanila boshlandi. Geografiya sohasida mazkur ishlar T.P.Gerasimova, M.K. Kavalebskaya, V.A. Karinskaya, L.M. Pancheshnikova, L.P. Safonova, M.K.Teltevsckaya va boshqalar tomonidan amalga oshirildi.

Hozirgi paytda jahonda testlarning juda ko'p turlari mavjud, ulardan eng asosiylari quydagilar:

- ko'p javobli testlar;
- uyg'unlashgan savolli testlar;
- tushurilib qoldirilgan so'zlarni to'ldirishga mo'ljallangan testlar;
- rasmi yoki chizmalı testlar;
- murakkab testlar;
- jadval shakldagi testlar;
- didaktik testlar yoki ko'p savolli va javobli testlar.

Tajribadan shu narsa ma'lum bo'ldiki, testlar asosida talabalar bilimni baholashning bir qator afzalliklari bor. Jumladan, test usuli oddiy va qulay, xolisona va qisqa muddat ichida talaba bilimni namoyon qiladi. Eng muhimi, avvalgi odatiy imtihon olish uslubi paytidagidek, talabalar o'qituvchiga qiyin savol berdingiz, men hammasini gapirdim, menga dastur materiallarida yo'q

savolni berdingiz kabi da'volari va baho talashish kabi nomaqul vaziyatlar bo'lmaydi. Avval imtihon oluvchi o'qituvchi javob berayotgan talabani baholash bilan bir qator auditoriyadagi imtihonga tayyorlanayotgan bolalarni ham nazorat qilib turishga majbur edi. Javob berayotgan talaba tayyorlanayotganlarning xayolini chalg'itar edi.

Test sistemasi asosida imtihon topshirganda esa talabaga hech kim xalaqit bermaydi, u butun vujudi bilan test savollariga javob berish bilangina band bo'ladi.

Test bitta savol va unga bir nechta javob tariqasida tuzildi. Imtihon topshiruvchi dastlab oshiqmasdan diqqat bilan 2-3 marotaba javoblarni o'qib chiqishi zarur. Chunki o'chirib yozish, birini o'chirib boshqasini belgilash qat'iy man qilinadi. Javobi to'g'ri bo'lganini bir martagina aniqlanadi va ko'rsatilgan shaklda belgi qo'yiladi. Testning bosh xususiyati o'rganilayotgan o'quv materialiga validligidir. Validlik ham inlizcha "valid" so'zidan olingan bo'lib "haqiqiy", "yaroqli" degan ma'nolarni anglatadi. Ma'nosidan ko'rinib turganidek validlik o'zgartish darajalariga daxldor hodisadir.

O'zlashtirish darajalari pedagogika fanida allaqachon qo'yilgan muammodir. V.T.Bespalko reproduktiv va produktiv faoliyat xususiyatlarini tahlil qilinib o'zlashtirish darajalarini aniqlashga harakat qilgan. Uning yozishicha reproduktiv (esga tushurish), produktiv (mustaqil) faoliyat ko'rsatishda analogiya yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga tadbiq qilish orqali xatti-harakatlar amalga oshiriladi. O'zgarlar faoliyati natijasini hech o'zgarishsiz takrorlash (reproduktiv) o'rganilgan bilimlarni yangi sharoitda takrorlash (produktiv). Inson faoliyatining ikki tomoni bo'lib, o'quv materialini bilan tanishishi takrorlash, tadbiq etish, ijod qilish darajalariga ega.

V.T. Bespalko shu darajalarni hisobga olib o'zlashtirishning 4 xil natijasini qayd etgan: O'rganilgan materialni tanish, o'rganilgan materialni takrorlash, amaliy topshiriqlarni bajarish, ijodiy topshiriqlarni bajara olish.

U yoki bu mavzu bo'yicha test topshiriqlari tizimini loyihalashda o'zlashtirish darajalari va ularga oid natijalar shuningdek testning validligi

hisobga olinadi. Testning validligi – testda berilgan topshiriqning mazmuni o’quv materialini o’zlashtirishning 1-darajasi va birinchi darajadagi faoliyat-ko’nikma darajasidagi hatti-harakatlarga, 2-darajasi va 2-darajadagi faoliyat malaka darajasidagi hatti-harakatdir, 3-darajasi uchinchi darajadagi faoliyat - tushuncha darajasidagi hatti-harakatlarga mos bo’lishi lozim. O’zlashtirishning 1- darajasiga mo’ljallab tuzilgan testlar tizimi joriy nazoratni, 2-darajasi uchun tuzilgan testlar tizimi oraliq nazoratni, 3-darajasi uchun tuzilgan testlar tizimi yakuniy nazoratni o’tkazish vositasi bo’ladi. Test nazorati natijalari qabul qilingan etalonga ko’ra qayd qilinadi.

Test topshiriqlarini tuzishda ilmiylik, izchillik, ixchamlik va aniqlik, formal emaslik, mantiqiy ketma-ketlik, tizimlilik, umumiylik va xususiylik, oddiylik yoki murakkablik, ko’rgazmalilik, nazariya bilan amaliyotning bog’liqligi, tafakkurni rivojlantirish, ijodiylik, mustaqillik va onglilik, tabaqalashtirish, ya’ni o’quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, tarbiyaviylik, o’quv dasturiga moslik, vaqt jihatdan obyektivlik, qo’llashga mumkinlik prinsiplariga amal qilinadi. Ushbu prinsiplarga amal qilingan holda tuzilgan testlar yuqori sifatli, samarali bo’ladi.

Ta’lim metodikasida test topshiriqlarini tuzish har xil rejalar va boshqa uslubiy ishlardan keyin amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda test topshiriqlari sinovlardan oldin tuziladi. Ular soni nazorat turiga, tekshiruv maqsadi va ta’lim vazifalariga bog’liq.

Test topshiriqlarini tuzishdan oldin uning spetsifiklik xususiyatlari tuzib chiqiladi. Odatda u jadval tarzida amalga oshiriladi. Uning qatorlari o’quv materialning qismlari, bo’limlarini aks ettirish, ustunlari B.Blum taksonomiyasi o’quv maqsadlar kategoriyalarini aks ettiradi. Testlarning xususiyatlari mavzu ichida mutanosiblikni saqlash maqsadida amalga oshiriladi. Quyida “Tabiiy geografiya boshlang’ich kursi”ning “Gidrosfera” mavzusi misolida tuzilgan testlar xususiyatida ko’rish mumkin.

1-jadval

O'rganila- yotgan mazmun	O'quv maqsadlari				
	Asosiy terminlarni bilish	Asosiy qonuniyat- larni tushunish	Qonuniyatlar- ga amal qilish	Raqamlar- ni eslab qolish	Jami
Gidrosfera turlari					
Suvning yer yuzasida taqsimlanishi					
Yer osti suvlarining taqsimlanishi					
Yer osti suvlarining hosil bo'lishi					
Jami					

Ma'lumki o'quv jarayonida o'quvchilarning bilimni baholashda turli nazorat shakllari qo'llaniladi. Masalan og'zaki nazorat, yozma nazorat, amaliy topshiriqlar, test topshiriqlari. Bunda test topshiriqlari maxsus tayyorlangan, optimallashtirilgan va maksimal ravishda obyektivlashtirilgan nazorat jarayonidir.

Test topshiriqlari didaktik materiallar sirasiga mansub bo'lib, u quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– **Test topshiriqlarining ta'limiy vazifasi.** Test topshiriqlari o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklarni aniqlaydi hamda ularni o'z bilimlarini orttirish maqsadida yangi bilimlarni o'rganishga undaydi.

– **Test topshiriqlarining tarbiyaviy vazifasi.** Test topshiriqlarini bajarish chog'ida o'quvchilar to'g'ri javobni topish jarayonida muayyan bilish qiyinchiliklarini his etadilar, bu muammoni hal etish maqsadida turli xil aqliy operastiyalar: tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasash kabilarni bajaradilar va shu orqali ularda barkamollikka zamin tayyorlaydigan sifatlar: iroda,

ongli intizom, muayyan o'quv muammolarini hal etishga safarbarlik, chidamlilik, sabr-toqat, yutuqlarga erishish uchun bilimi va kuchini sarf etishi orqali shaxs sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

– **Test topshiriqlarining rivojlantiruvchi vazifasi.** Test topshiriqlari o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, rivojlantirish, erishilgan natijalarda o'zining ulushi muhim o'rin tutishini e'tiborga olgan holda shaxs sifatida va kelgusi faoliyatidagi ma'suliyatini anglagan holda o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi.

Test topshiriqlari didaktik material sifatida quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Har bir tuzilgan test topshirig'i tegishli ta'lim turi bo'yicha o'quv rejadan o'rin olgan o'quv kurslari bo'yicha Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida tuzilishi, test savol va javoblarining mazkur fan (predmet, darslik) dasturiga va matn qismiga monand bo'lishligi, tuzilgan test topshiriqlarida darslik materiallarining asosiy mazmuniga, ya'ni nazariy, metodologik va amaliy jihatlariga taalluqli savollar o'z aksini topgan bo'lishligi.

2. Test topshirig'i umumiy qabul qilingan atamalar asosida tuzilib, unda leksikadan chiqib ketgan, shuningdek, kam ishlatiladigan yoki ko'p ma'noni anglatadigan so'zlar, iboralar, belgilar, sifatlar va ma'juziy ma'noni beradigan tushunchalar bo'lmasligi kerak.

3. Test topshiriqlari ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida, yagona o'quv maqsad: o'quv jarayonida o'quvchilar tomonidan muayyan bilim yoki ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini aniqlashni nazarda tutgan holda tuzilishi lozim.

4. Ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan test topshirig'i to'rt qiyinlik darajasi asosida tuzilishi va har bir topshiriqning qiyinlik darajasi topshiriq pasportida ko'rsatilishi kerak:

- **Oson (reproduktiv) (I)** - o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, hodisa, voqea, qonun va atamalarning mohiyatini bilishni talab qiladigan daraja;

- **O'rtacha qiyin (produktiv) (II)** - o'quvchilardan obyektlarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo'llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;
- **Qiyin (qisman-izlanishli) (III)** - o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash, obyektlarni tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja;
- **Eng qiyin (kreativ) (IV)** - o'quvchilar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni kutilmagan vaziyatlarda vujudga keltirilgan o'quv muammolarni hal etishda qo'llash, tahlil, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, xulosa yasash kabi aqliy operastiyalarni bajarishni talab qiluvchi daraja;

5. Test topshirig`ining savoli aniq, lo'nda, qisqa ifodalangan bo'lishi, unda zaruriy muhim ma'lumotlar keltirilishi, keraksiz, ortiqcha so'zlarni ishlatmaslik, shuningdek, savol ikki xil ma'noni anglatmasligi kerak.

6. Standart test topshirig`ining javobi to'rtta bo'lib, ulardan bittasi mutlaq to'g'ri bo'lishi, muqobil javoblar orasida "javoblarning barchasi to'g'ri", "javoblarning barchasi noto'g'ri", "to'g'ri javob yo'q", "to'g'ri javob A va V" yoki "to'g'ri javob S va D" kabi iboralar ishlatilmasligi kerak.

7. Test topshirig`ining javoblari ham, noto'g'ri javoblari ham bitta mavzu doirasida bo'lishi, shakl jihatidan bir-biriga yaqin bo'lishi, to'g'ri javob shaklan ajralib turmasligi, muqobil javoblar variantlarida so'zlarni keraksiz takrorlamaslik, shuningdek, tushunarli, aniq va qisqa bo'lishi, asosli ravishda tanlanishi talab etiladi.

8. Test topshirig`i savolida to'g'ri javobni topishga yordam beruvchi so'z va iboralar ishlatilmasligi, orfografik va grammatik xatolarga yo'l qo'yilmasligi lozim.

9. Har bir test topshirig`i o`z pasportiga ega bo`lishi ularni rasmiylashtirishda o`quv kursining nomi, bob va bo`lim raqami, test topshirig`ining qiyinlik darajasi bo`lishi lozim.

10. Talaba yoki o`quvchilarning umumiy va individual xususiyatlariga monand kelishligi, respublikamiz miqyosida o`quvchilarning umumiy bilim saviyasini (me`yor mezonini) nazarda tutishligi, savollarining umumiy soni, murakkabligi darajasi va ularni yechish uchun ajratilgan vaqt o`quvchilarning yoshi, fiziologik va psixologik xususiyatiga monand bo`lishligi.

11. O`quvchilarning test topshiriqlarini erkin yechishlari uchun sinfxonalarda osoyishtalik va zarur shart – sharoitlarni ta`minlash zarurligi.

12. Turli darsliklar yoki bir darslikning turli boblaridan tuzilgan savollar soni ma`lum nisbat- muvozanatligiga rioya qilish zarurligi.

1.2 Test topshiriqlarining tasnifi va qiyinlik darajasi mezonlari

Hozirgi vaqtda test topshiriqlarida nafaqat pedagogika (ta`lim)da balki tibbiyot, texnika, menejment va boshqa qator sohalarda ham muvaffaqiyatli qo`llanib kelinmoqda. Bunda test topshiriqlarini qo`llashda umumiy xususiyatlar: test topshiriqlarini tuzish metodikasi, samaradorlik, variativlik, ishonchlilik, validlik bilan bir qatorda har bir sohaning o`ziga xos xususiyatlari, masalan, ma`lum bir fanning ta`lim mazmuni, testlarning mantiqiy tuzilishi, test sinovining o`tkazilish maqsadi, kasbiy va umumta`lim bilimlarni nazorat qilish va baholash tartibi va o`lchovi ham e`tiborga olinishi lozim.

Test metodining keng tarqalishi, rivojlanishi va takomillashuviga uning quyidagi afzalliklari mavjud:

- ✓ Test topshiriqlari tadqiqot maqsadiga muvofiq respondentlarning bilim, ko`nikma va malakalariga aniq baholash imkonini beradi;
- ✓ Ijtimoiy so`rovlarda ishtirok etgan ko`psonli respondentlarning fikr va mulohazalarini aniqlash va umumlashtirish imkoniyati mavjud;

✓ O'quvchi va talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash jarayoni obyektiv amalga oshiriladi, baholovchi tomonidan subyektivizmga yo'l qo'yish oldini oladi.

✓ Turli guruh respondentlaridan olingan ma'lumotlarni qiyosiy-statistik tahlilini o'tkazish imkon berishi.

Test topshiriqlarining o'z navbatida turli olimlar tomonidan turlicha tasnifi keltirilgan. Ularni quyida ko'rishimiz mumkin:

I. Maqomi (status) ga ko'ra test turlari

1. Standart testlar
2. Nostandart testlar

II. Pedagogik xarakteriga ko'ra test turlari:

1. Adaptiv testlar. Bu testlar talabaning imkoniyatiga moslashtirilgan testlar
2. Integrativ testlar – qirraviy fanlar bo'yicha (geosiyosat, siyosiy geografiya, geokimyo, biogeografiya) tuzilgan testlar

3. Mezonli testlar.

4. Me'yoriy testlar. Ko'proq psixologiyada foydalaniladi.

III. Tipi va shakliga ko'ra test turlari:

Ochiq tipdagi testlar

- a) bitta to'g'ri javobli
- b) bir nechta to'g'ri javobli
- c) mutanosiblik testlari
- d) izchillik testlari

2. Yopiq tipdagi testlar

- a) to'ldiruvchi
- b) davom ettiruvchi

IV. Murakkablik darajasiga ko'ra test turlari

1. Oddiy (bilimlarni tekshirishga qaratilgan test turlari)
2. Reproduktiv testlar (bilim, ko'nikma, malakani tekshirish)
3. Produktiv testlar (bilim, ko'nikma, malaka hamda mustaqil fikrlar)
4. Inkoriy izlanuvchan testlar (bilim, ko'nikma, malaka hamda ijodiy)

V. Mazmuniga ko'ra test turlari:

1. Gomogen (bir-biriga o'xshash, bitta fan doirasida tuzilgan testlar)
2. Geterogen har soha bo'yicha tuzilgan testlar (masalan, kirish testi, layoqat testi)

Pedagogik testlar 3 yo'nalishda nazorat ishlarini olib boradi:

1. O'zlashtirish darajasini tekshirish
2. Tarbiyalanganlik formasini teshirish
3. Shaxsning shakllanganlik formasini nazorat qilish

Test topshiriqlari tarkibi va mazmuni jixatdan 4 ta shaklga bo'linadi:

1. Yopiq testlar.
2. Ochiq testlar.
3. Mos kelishiga doir testlar.
4. Ketma-ketlikning tartibga soluvchi testlar.

Bundan tashqari testlarning boshqa shakllari ham mavjud:

1. Zanjirsimon.
2. Matnli.
3. Vaziyatsimon.

Yopiq test topshiriqlari: bunday testlar savollar va javoblar yig'indisidan iborat bo'lib, javobdan bittasi to'g'ri, qolganlari esa noto'g'ri yoki qisman to'g'ri bo'ladi. Ularni yopiq test deyilishining sababi, javob beruvchi qo'yilgan savolga o'z javobini bera olmaydi, faqat taklif qilingan javoblar ichida to'g'risini tanlash talab etiladi. Yopiq test topshiriqlarida bir necha to'g'ri javoblar bo'lishi ham mumkin. Yopiq test topshiriqlarini tuzuvchilar shartlarni ma'qullash tarzida yoki savol tarzida qo'yishi ham mumkin.

Test tuzuvchi test shartini shakllantirishda unga unga beriladigan to'g'ri javobni har tomonlama puxta o'ylab tuzish maqsadga muvofiq. Egallangan bilimlarning yuzaki ekanligi, berilgan javoblar orqali namoyon etilishi kerak. Bunday testlarni o'quv materialini to'liq egallagan o'quvchigina bajara olishi mumkin. Yopiq testlarning aksariyat oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar, yakuniy nazorat topshiruvchilar va boshqa bilimlarni nazorat qilishda keng qo'llaniladi.

Ochiq test topshiriqlari. Bunday testlar tekshiruvchidan erkin javob berilishini taqazo etadi. U soʻzlarni taklif qilishdan iborat boʻlib, unda yetakchi soʻz tushirib qoldirilgan boʻladi.

Masalan: dunyodagi eng yuqori harorat $+58^0$ harorat Afrikada, shahrida kuzatilgan. (Tripoli soʻzi yetakchi tushirib qoldirilgan soʻz).

Yaʼni ochiq test topshirigʻi deb tushirib qoldirilgan va javob keltiriladigan testga aytiladi. Bunda toʻgʻri javob toʻldiruvchi toʻgʻri soʻz hisoblanadi.

Tarbiyalovchi test topshiriqlari. Bunday testlar talab etilgan ketma-ketlik harakatlarni, hisob-kitoblarni, hukmlarni tasdiqlovchi xarakterga ega boʻladi.

Sinaluvchiga «toʻgʻri ketma-ketlikni aniqlash topshiriladi»

Masalan: Materiklarning maydoniga koʻra ketma-ketligini toʻgʻri keltiring.

A. Shimoliy Amerika B. Janubiy Amerika S. Yevrosiyo D. Afrika

E. Avstraliya F. Antarktida

Javob ketma-ketligi quyidagicha boʻladi: S, D, A, B, F, E.

Yuqorida koʻrsatilgan test topshiriqlari shakllarini umumlashtirgan xolda, ularning yutuq va kamchiliklarini quyidagi jadvalda koʻrishingiz mumkin:

2-jadval

Test shakllari	Asosiy vazifalar	Kamchiliklari
Ikki javobli yopiq test topshiriqlari faqat 1 ta javob toʻgʻri	Kompyuter uchun juda qulay. Ogʻzaki ravishda ham qoʻllash mumkin. Oʻqituvchi topshiriqni oʻqiydi. Oʻquvchilar agar javob A boʻlsa qoʻllarini koʻtaradilar.	Toʻgʻri javobni topish imkoniyati yuqori (50 %). Ammo baholashda aniqlik juda past.
Uchta javobdan iborat yopiq test topshiriqlari shulardan bittasi toʻgʻri, ikkitasi notoʻgʻri ammo toʻgʻrilik elementlari uchraydi.	Bunday test obyektlari sabablarga koʻra 3 tagina javobdan iborat boʻladi.	Toʻgʻri javobni topish ehtimoli 33 % ga teng.
Toʻrtta javobdan iborat yopiq test topshiriqlari ulardan bittasi toʻgʻri javob.	Dunyoda eng keng tarqalgan.	Toʻgʻri javobni topish ehtimoli 25%

Besh va undan ortiq javobdan iborat test topshiriqlari. Ulardan bittasi to'g'ri.	Ma'suliyatli paytlarda qo'llaniladi. To'g'ri javobni topish ehtimoli juda past.	Besh javobli testlarni tuzish bir muncha murakkab eng muhim qiyinchilik to'g'rilik ehtimoli bilan noto'g'ri javoblarni topishdadir.
Bir necha to'g'ri javobdan iborat yopiq test topshiriqlari.	Fikrlashni rivojlantiradi.	Baholashda bir muncha qiyinchilik tug'diradi.
Ochiq test topshiriqlari	Qo'shimcha javoblar berilmaydi, oddiy usulda topish imkoniyati bor.	Bilimlarni nazorat etishda ishtirokchilar kamligi.
To'g'ri ketma-ketlikni o'rnatishga oid bo'lgan topshiriqlar.	Algoritm bilimlarni sinash uchun qulay. Bular hisob – kitob operatsiya va harakatlar ketma-ketligini aniqlash uchun qulay bo'lib, nafaqat nazorat balki ta'limiy ahamiyatga ega.	Ketma-ketlik harakatlar hamma vaqt ham to'g'ri javobni topishda qo'l kelavermaydi.

Demak, testlar maqsadlarga erishishdagi muhim bosqichdan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning muhim yutuqlaridan biri ham, butun ta'lim jarayoni uchun testlar fondining barpo etilganligidir.

O'quvchilar bilimni baholashda pedagogik texnologiya afzalliklari shundan iboratki o'quv jarayonini testlar yordamida baholash ta'limda teskari operativ aloqani o'rnatishga yordam beradi. Eng muhimi qati'y izchillikda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Test texnologiyasida o'quvchilar bilimni baholash xususiyatlari, a'naviy ta'limdan farq qiladi. Buni 3-jadvalda ko'rish mumkin:

3-jadval

Yangi pedagogik texnologiyada o'quvchilar bilimni baholash xususiyatlari

№	Savol-javob usulida baholash xususiyatlari.	Test texnologiyalari asosida baholash xususiyatlari
1	Aksariyat savollarni individual berish va ularni batafsil tanlash imkoniyati yo'q yoki juda	o'qituvchi savoli aniq maqsad asosida tuziladi. Ya'ni savol umumiy bo'lmasdan, balki uning ichidan ma'lum

	cheklangan	bir qismini ajratib olib javob berishga yo'naltirilgan bo'ladi
2	Barcha o'quvchilarning javoblarini, noaniqliklarni to'liq qamrab olish imkoniyati yo'q. Hatto ularni eslab qolish imkoniyatlari ham juda zaifdir	O'qituvchi o'quvchining javobini to'liq va diqqat bilan tinglashi uni o'z vaqtida tuzatib (korrekstiya) borishi yoki javobdagi chalkashlik, noaniqliklardan o'ziga belgilab borishi talab qilinadi
3	O'qituvchi har bir o'quvchining, alohida o'quv elementiga (bilim, tushuncha, ko'nikma) doir javobidagi har bir kamchilikni to'liq izohlab berish imkoniyatiga ega emas.	Belgilangan o'quv materiali bo'yicha o'quvchi bilimni aniq baholash (test savol, mashq kontur kartalar va h.k.), javobdagi har bir kamchilikni to'liq izohlab berish imkoniyatlari mavjud bo'lishi talab qilinadi

Dastlab test topshiriqlari bitta savol va unga beshta javob tariqasida tuzilar edi. Hozirgi vaqtda 4 ta javob tariqasida tuziladi. Talabalarning bilimni xolisona baholash uchun test savollari va ularning muqobil javoblarining xilma xil turlaridan foydalaniladi. Quyida unga misollar keltiramiz.

Sinaluvchidan to'g'ri javobni aniqlash talab qilinadigan test topshiriqlari.

- I. Shamol deganda nimani tushunasiz?
- A. Havoning vertikal harakatini
 - B. Suvning gorizontal harakatini
 - C. Suvning vertikal harakatini
 - D. Havoning gorizontal harakatini.

Manbaga qarasak shamol tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Havoning tinch turgan vaqti juda kam bo'ladi. Yozda kunduz kuni ko'l, daryo bo'yida, daraxtzor yoki dala chekkasida o'tirsangiz, shamol esayotganini albatta sezasiz. Havoning bu gorizontal harakatiga shamol deyiladi". Bu yerda to'g'ri javobni aniqlash uchun dastlab ushbu atamaning mazmunini eslay olish, so'ngra muqobil javoblarni tahlil qilish zarur. To'g'ri javobning muqobil suvning vertikal yoki gorizontal harakati, havoning vertikal harakati deb yuritiadigan variantlari ham keltirilgan. Lekin ular "shamol" tushunchasiga javob bo'la olmaydi.

- II. Atlantika okeanining eng chuqur joyini belgilang.
- A. Zond

- B. Mariana
- C. Puerto-Riko
- D. Grenlandiya

Okeanlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmagan o'quvchi to'g'ri javobni topa olmaydi. Bu botiqlar ko'pchilikka tanish.

Talabadan noto'g'ri javobni topish talab etiladigan test savollari va ularning muqobil javoblari.

III. Cho'kindi tog` jinsiga tegishli bo'lmagan javobni toping.

- A. Gil.
- B. Qum.
- C. Bo'r.
- D. Bazalt.

Noto'g'ri javobni topish uchun dastlab cho'kindi va otqindi tog` jinslarining hosil bo'lish jarayonini eslash lozim. Bunday savollar bir paytning o'zida talabalarga bilim berish vazifasini ham o'taydi. So'ralayotgan noto'g'ri javobi D: Bazalt.

Tushirib qoldirilgan so'zlarni to'ldirish talab qilinadigan test topshiriqlari.

IV. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlardan birini qo'yib o'qing: "Daryoning okean, dengiz, ko'l yoki boshqa daryoga quyiladigan joyideyiladi".

- A. Manbai
- B. Mansabi
- C. Havzasi
- D. Sistemasi

Bunda "Daryolar" mavzusini to'g'ri javobni topa olmaydi. To'g'ri javobni aynan shu mavzuda keltirilgan daryo qismlarini eslab topish mumkin. Demak, bu savol o'quvchi yoki talabalarning eslash yoki tafakkurlash qobiliyatini sinaydi. To'g'ri javobi: B. Mansabi.

Test topshiriqlari murakkablik darajasiga ko'ra ham turlichadir. Oson, o'rtacha qiyinlikdagi, qiyin va juda qiyin test savollari bo'ladi. Agar test topshiriqlari o'quvchi va talabalardan qanchalar chuqur mushohada qilish

(fikrlash) qobiliyatini namoyon qilishni talab qilsa, shunchalar murakkab hisoblanadi.

Test topshiriqlarining yalpi joriy etishdan avval, tanlangan maqsadli guruhda sinovdan o'tkazish, olingan natijalar va baholashning obyektivligi tahlil qilinishi lozim. Olingan natijalar va testlarning maqsadga muvofiqligi quyidagi **mezonlar** bo'yicha tahlil qilinadi:

Test topshiriqlarining qiyinlik darajasi mezoni o'rganilayotgan obyektning xususiyatlarini o'zida to'liq aks ettirib, u o'quvchi-talabalar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operastiyalariga ko'ra:

Reproduktiv daraja;

Produktiv daraja;

Qisman-izlanishli daraja;

Ijodiy (kreativ) darajada bo'lishi mumkin.

Reproduktiv darajadagi test topshiriqlari o'quvchi-talabalarning tomonidan yodda saqlangan bilim, ko'nikma va malakalarni tanish odatiy vaziyatda axborotlarni qayta ishlamasdan javob qaytarishni talab etadi. Bu darajada tuzilgan testlar talabalar tomonidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq baholash imkonini bermaydi.

Produktiv darajada tuzilgan test topshiriqlari o'quvchi-talabalar tomonidan o'rganilgan obyektlarni qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni aniqlash, umumiy xulosa chiqarish orqali javob berishni talab etadi.

Qisman-izlanishli darajadagi test topshiriqlari o'quvchi-talabalar tomonidan o'rganilgan obyektlarning xususiyatlarini boshqa obyektga ko'chirish, mazkur obyektlarni taqqoslab, keyingi obyektning o'ziga xos xususiyatlari haqida xulosa chiqarish, qisman izlanish olib borishni talab etadi. Talabalar tomonidan mazkur darajadagi test topshiriqlariga javob berishda avval o'zlashtirilgan bilimlar yangi vaziyatlarga ko'chiriladi.

Ijodiy (kreativ) darajada tuzilgan test topshiriqlari talabalar tomonidan ijodiy fikr yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish, mazkur test topshiriqlarini bajarish

jarayonida talabalar tomonidan avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llashni talab etadi.

Dastlabki reproduktiv va produktiv darajadagi test topshiriqlari o'quv fan bo'yicha tasdiqlangan DTS ining minimal darajasiga, qisman-izlanishli va ijodiy (kreativ) darajadagi test topshiriqlari DTSining maksimal darajasiga mos tuzilishi zarur.

1.3 Standart va nostandart testlar - pedagogik nazorat va baholash texnologiyasi sifatida

O'quvchi-talabalar tomonidan qiyinchilik darajasi va mazmunan bir xil test topshiriqlarni bajarish orqali olingan natijalariga muvofiq tabaqalashtirish mezonini ularni kuchli, o'rta va kuchsiz guruhlariga ajratish mumkin. Mazkur tabaqalashtirish orqali o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalaridagi tipik kamchiliklar va bo'shliqlarni aniqlash, ularga barham berish yo'llarini topish imkonini beradi.

Pedagogik testlar - bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega, o'quvchi-talabalarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga imkon beradigan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Topshiriqlar tizimi deyilganda, muayyan mavzu, bob, bo'lim yoki kurs mazmunini o'zida mujassamlashtirgan va tizim hosil qiluvchi xususiyatga ega bo'lgan o'qituvchi tomonidan tanlangan topshiriqlar majmuasi tushuniladi.

Test topshiriqlarining o'ziga xos shakli oddiy savol-javobdan farq qilib, test topshirig'i savollari va javoblari qisqa va lo'nda bo'lishi bilan izohlanadi.

Test topshiriqlarining muayyan mazmuni deyilganda kurs mavzulari va ularning mazmunidagi nazorat qilinishi lozim bo'lgan o'quv materiallari tushuniladi.

Test topshiriqlarining mantiqiy jihatdan asoslanganligi mezoni o'zida savol va topshiriqlarning mantiqiy ketma-ketlikda aks ettirilishi tushuniladi. Test topshiriqlari mantiqiy tuzilishiga ko'ra: induktiv yoki deduktiv bo'lishi mumkin.

Test topshiriqlarining javoblari mazmunga mos, qisqa fikrli, aniq, lo'nda, to'g'ri va noto'g'ri jummalardan iborat bo'ladi. Test topshiriqlaridagi to'g'ri va noto'g'ri javoblarning tarkibidagi so'zlar birikmasi va soni bir xil bo'lishi talab etiladi.

Talabalarning bilim darajasi test topshiriqlari orqali nazorat qilingan va olingan natijalarni tahlil etish orqali ularning mazkur kurs bo'yicha DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganlik darajasi aniqlanadi.

Talab darajasida tuzilgan test topshiriqlarining natijalari, ya'ni talabalarning to'plagan ballari va ko'rsatkichlari mazkur kurs bo'yicha o'quv jarayonining maqsadga muvofiq tashkil etilganligi, ta'limning individuallashtirilganligi, tabaqalashtirilgan yondoshuvning mavjudligi, pedagogning pedagogik mahorati, nazoratning haqqoniyligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi muayyan fan bo'yicha o'quvchi-talabalarning shu fan bo'yicha me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash uchun test topshiriqlarini tuzishda avvalo asosiy e'tiborni, davlat ta'lim standartlari mazmunini qamrab olinishiga qaratishi lozim.

Bunda nazorat va baholash texnologiyasi sifatida standart va nostandart texnologiyalardan foydalaniladi.

Standart test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talab, har bir test muayyan mazmun, tarkib, yaxlitlik va strukturaga ega bo'lishi lozim. U topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida o'quvchi-talabning egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'lishi zarur.

Test topshiriqlarining yaxlitligi u bir mavzu, bob, bo'lim yoki kurs mazmunini qamrab, ularni nazorat qilish imkoniyatiga ega ekanligida ko'zga tashlanadi. Har bir test topshirig'i yaxlit topshiriqning bir bo'lagi sifatida muayyan mazmunni qamrab oladi va ma'lum bir vazifani bajaradi, shu sababli ularning

birortasini olib tashlash bilimlarni aniqlash jarayoni va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Test topshiriqlarining strukturasi topshiriqning o'zaro aloqadorligini amalga oshirish orqali erishiladi. Asosan, har bir test topshirig'i bir-biri bilan umumiy mazmun va erishilishi nazarda tutilgan natijalarning umumiy variatsiyasi orqali bog'liqligini ko'rish mumkin.

Standart pedagogik testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: gomogen va geterogen testlarga ajratiladi.

Gomogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, talabalarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bitta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Geterogen testlar bu qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, o'ziga xos shaklga ega bo'lib, talabalarning muayyan mazmun yuzasidan tayyorgarlik darajasi, bilim, ko'nikma va malakalarini sifatli va samarali nazorat qilish va baholashga mo'ljallangan bir nechta o'quv kurs bo'yicha tuzilgan topshiriqlar tizimi sanaladi.

Standart testlar mazmuni bo'yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig'i savoli va to'g'ri va noto'g'ri javoblardan iborat bo'lsa, **nostandart testlar** o'zining mazmuni, tuzilishi va qo'llanish maqsadiga ko'ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo'ljal olish testlari.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi bo'yicha o'sib boruvchi, ta'lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, talabalarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabanning egallashi mumkin bo'lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo'yicha ko'rsatmalardan iborat bo'ladi. Adaptiv testlarning asosiy guruhini piramidali adaptiv testlar tashkil etib, qo'llanish maqsadiga ko'ra: o'rtacha og'irlikdagi, talabanning tanlashiga ko'ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo'lishi mumkin.

Adaptiv testlar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning modul-kredit paradigmasida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Buning uchun pedagog bitta mavzu, bob, bo'lim, kurs mazmuni bo'yicha turli qiyinchilik darajadagi bir necha variantli test topshiriqlarini tuzish va amalda qo'llash mahoratiga ega bo'lishi lozim.

Mezonli-mo'ljal olish testlari talabalarning umumiy tayyorgarlik darajasi, mazkur kursning o'qitilish sifati, pedagogning pedagogik mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi, ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovard natijada talabalarning shu kursni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi.

Mezonli-mo'ljal olish test sinovlari orqali talabalarning bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi.

Nostandart test topshiriqlarini ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni o'quvchi-talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Nostandart test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli, test topshiriqlari mazmunini tanlash quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Test topshiriqlari mazmuni sinov maqsadiga mosligi prinsipi. Mazkur prinsip o'quvchi-talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini

nazorat qilish va baholash reyting tizimining nazorat turlarida test topshiriqlarining mazmuni maqsadga muvofiq tanlanishini talab etadi.

2. Nazorat va baholanayotgan bilimlarning muhimligi prinsipi. Muhimlik prinsipi test topshirig`i savollariga o`quv dasturidagi eng muhim qonun, nazariya, tushuncha va ko`nikmalarni kiritishni talab etadi. Bu jarayonda ikkinchi darajali ma`lumotlar, raqamlar va faktik materiallar test topshiriqlariga kiritish tavsiya etilmaydi.

3. Mazmun va shakl birligi prinsipi. Mazkur prinsip test topshiriqlarining mazmuni va shakli bir-biriga mos, yaxlitlikni tashkil etishini talab etadi.

4. Test topshiriqlarining mazmunan to`g`riligi prinsipi. Test topshiriqlariga o`quv kursi mazmunidagi obyektiv va haqiqiy bilimlar kiritilishi maqsadga muvofiq. Mazmundagi bahs va munozaraga olib keladigan masalalar test topshiriqlariga kiritilmasligi lozim. Bu holat talabalarning o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini bermaydi.

5. Test topshiriqlari mazmunida o`quv kursi mazmunining qayta taqdim etilishi prinsipi. Mazkur prinsip test topshiriqlarini tayyorlashda o`quv kursi mazmunini to`liq va yetarli darajada qamrab olinishini nazarda tutadi. O`quv kursi bo`yicha tashkil etiladigan ta`lim-tarbiya jarayonida mavzulararo, boblararo, bo`limlararo va fanlararo bog`lanishlarga yetarli darajada e`tibor qaratilgan, mazmunan bu jarayon o`quv materialida o`z aksini tushunchalar o`rtasidagi bog`lanishlar shaklida topgan bo`lsa, bunda hamma mavzular bo`yicha emas, balki tanlangan asosiy mavzular va boblar bo`yicha test topshiriqlari tayyorlanadi.

6. Test topshiriqlari mazmunining fanning hozirgi zamon holatiga mosligi prinsipi. Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini jamiyatimizda sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy qarashlar, huquqiy me`yorlar, fanning o`quv kursi ta`lim mazmuniga kiritilgan fan yangiliklariga moslashni talab etadi.

7. Test topshiriqlari mazmunining majmual va muvozanatlashgan bo`lishi prinsipi. Mazkur prinsip test topshiriqlari mazmunini tanlashda maqsadga

muvofiglikni keltirib chiqaradi, nazorat uchun tuzilayotgan test topshiriqlarining mazmuni uning turi va qo'llanishini e'tiborga olingan holda bob, bo'lim yoki kurs mazmunini to'liq qamrab olishini taqazo etadi.

8. Test topshiriqlari mazmunining tizimlilik prinsipi. Mazkur prinsipga asosan, test topshiriqlarining mazmunini tanlashda, mazmun talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda tizimlilik talablariga javob berishi lozim. Undan tashqari test topshiriqlarining tizimli mazmuni, bir-biri bilan uzviy bog'langan bilimlarning umumiy strukturasi aks ettirishi zarur.

9. Test topshirig'i mazmunining variativligi prinsipi. Test topshirig'i birinchi marta amaliyotga joriy etilganda, ularning mazmuni o'quvchi-talabalarga ma'lum bo'lib qoladi va test javoblari xaqidagi axborotning chetga chiqib ketish hollarining oldini olish uchun, mazkur prinsip test savollari va javoblarini ko'p variantli qilish, ularni almashtirib, yangilab turishni taqazo etadi. Bu holatda test topshiriqlarining mazmuni va uni bajarish qiyinchilik darajasini saqlash talab etiladi.

II BOB. TABIIY GEOGRAFIYANING BOSHLANG`ICH KURSIDA STANDART VA NOSTANDART TESTLARDAN FOYDALANISH USLUBIYOTI

2.1 Mavzuni mustahkamlashda standart va nostandart testlardan foydalanish

“Tabiiy geografiyaning boshlang`ich kursi” haftasiga bir soatdan jami o`quv yili davomida 34 soat o`qitiladi. Hozirgi vaqtda ushbu kurs O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan P.G`ulomov, R.Qurbonniyozov hammuallifligida yozilgan darslikning 2015 yilda qayta ishlangan va to`ldirilgan nashri asosida o`qitiladi. Ushbu darslik 9 bob 34 mavzudan hamda darslik bilan ishlash bo`yicha ko`rsatma va termin va tushunchalarning izohli lug`atidan iborat. Fanning ish rejasida 2 ta amaliy mashg`ulot va 4 ta nazorat ishi kiritilgan. Shu bilan birga kursni o`zlashtirish jarayonida o`quvchilarda ayrim mavzularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu mavzularga singdirilgan holatda tabiatda yolg`iz qolishga to`g`ri kelganda mo`ljal olish, zilzila, ko`chki, suv toshqinlari, sel, bo`ron, quyun vaqtida o`zini tutish ko`nikmalari shakllantiriladi. Ushbu kursni o`zlashtirish jarayonida quyidagi tayanch kompetensiya elementlari shakllantiriladi:

- ❖ kommunikativ kompetensiya;
- ❖ axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
- ❖ o`zini o`zi rivojlantirish kompetensiyasi;
- ❖ ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
- ❖ milliy va umummadaniy kompetensiya;
- ❖ matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish va foydalanish kompetensiyasi.

5-sinf o`quvchilariga o`qitiladigan “Tabiiy geografiya boshlang`ich kursi”ni o`qitish jarayonida va test topshiriqlaridan foydalanish jarayonida o`quvchilarning yoshini inobatga olib hamda o`quvchilarda geografik tasavvurlarning rivojlantirish maqsadida hamda o`tilgan yangi mavzuni mustahkamlashda tavsiya etiladigan standart va nostandart testlar taklif etiladi:

1-mavzu: Geografiya nimani o'rganadi?

Ushbu mavzuni mustahkamlashda standart testlar:

1. Qaysi yunon olimi birinchi bo'lib o'zi yozgan kitobni geografiya deb atagan ?

- A. Gerodot B. Ptolomey C. Eratosfen D. Arximed

2. Geografiya so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A. Lotincha "ge" – yer, "grafo" yozaman
 B. Yunoncha "ge" – yer, "grafo" chizaman
 C. Yunoncha "ge"- yer, "grafo" yozaman
 D. Yunoncha "ge"- suv, "grafo" - yozaman

3. Geografiya so'zi qanday ma'noni anglatadi ?

- A. "Yerni tasvirlab yozaman", "Yer tasviri" B. "Yer haqidagi fan"
 C. "Yerni chizaman" D. "Yer qobiqlari tasviri"

4. Geografiya fani nimani o'rganadi?

- A. Yer yuzi tabiatni B. Yer yuzi aholisi
 C. Yer yuzi aholisining xo'jalik faoliyatini D. Barcha javoblar to'g'ri

5. Yer yuzining tabiati, aholisi va uning xo'jaligini o'rganadigan fan qanday ataladi?

- A. Geologiya B. Matematika C. Geografiya D. Botanika

6. Geografiya fani rivojlanib borgan sari unda qaysi asosiy yo'nalishlar vujudga keldi?



















- A. Tabiiy va sun'iy geografiya B. Ijtimoiy va iqtisodiy geografiya
 C. Tabiiy va iqtisodiy geografiya D. Iqtisodiy va noiqtisodiy geografiya

7. Yer yuzi tabiatining holati, uning o'zgarishi, ro'y beradigan tabiiy hodisalarni, tabiatdan foydalanganda nimalarga e'tibor berish zarurligini geografiyaning qaysi yo'nalishi o'rganadi?

- A. Iqtisodiy geografiya B. Amaliy geografiya
 C. Sotsial geografiya D. Tabiiy geografiya

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

Ushbu mavzuda o'quvchilar ob-havoning shartli belgilari bilan tanishishadi.

 Havo ochiq	 Kuchli shamol	 Bulduruq
 Havo bulut	 Quyun	 Do'l
 Havo yarim bulut	 Tuman	 Momaqaldiraq
 Havo ozgina bulut	 Yomg'ir	 To'p-to'p bulut
 Shabada	 Qor	 Qat-qat bulut
 O'rtacha shamol	 Jala	 Patsimon bulut

1-rasm. Ob-havoning shartli belgilari

Bunda quyidagi rasmlil testlardan foydalanish mumkin:













1. Ob-havo hodisalarining shartli belgilaridan “havo ochiq” shartli belgisi qaysi javobda keltirilgan?

- A.  B.  C.  D. 

2. Bugun havo bulut, dastlab momaqaldiraq bo'lib yomg'ir yog'di. Ob-havoning bu holati qaysi javobda ko'rsatilgan?

- A.  ,  , 
- B.  ,  , 
- C.  ,  , 
- D.  ,  , 

3. Ertalab maktabga borayotganimizda tuman tushgan edi. So'ng kuchli shamol esib, havo ochilib ketdi.

- A.  ,  , 
- B.  ,  , 
- C.  ,  , 
- D.  ,  , 

2-mavzu: Qadim zamonda odamlar Yerni qanday tasavvur qilishgan?

Ushbu mavzuni mustahkamlashda standart testlar:

1. Kishilar bundan qancha yil ilgari yerning shaklini chizmada tasvirlashga harakat qilishgan?

- A. 5 ming yil ilgari B. 6 ming yil ilgari
C. 7 ming yil ilgari D. 8 ming yil ilgari

2. Dengiz bo'ydagi odamlar yerni qanday tasavvur qilganlar?

- A. Yerni toshbaqalar ko'tarib turadi B. Yerni fillar ko'tarib turadi .
C. Yerni nahang baliqlar ko'tarib turadi D. Yerni katta ho'kiz shoxida ko'tarib turadi

3. Yer sharsimon, yumaloq bo'lsa kerak, degan tasavvurning yuzaga kelganiga qancha vaqt bo'ldi?

- A. 1300 yil B. 3200 yil C. 7000 yil D. 2400 yil

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

Miloddan avvalgi 3-asrda Eratosfen tuzgan dunyo xaritasi 1 raqamida yashiringan orol, 2 raqamida yashiringan tog', 3 raqamida yashiringan dengiz, 4 raqamida yashiringan daryoni toping.



To'g'ri javob: Albion oroli, Tavr tog'lari, Eritreya dengizi, Yaksart daryosi

2-mavzu: Quyosh, Oy va yulduzlar

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

1. Yerga eng yaqin bo'lgan, qizib yotgan yulduzni ko'rsating.

A. Zuhra B. Oy C. Mushtariy D. Quyosh.

2. Yerning tabiiy yo'ldoshi qanday ataladi?

A. Oy B. Quyosh C. Merkuriy D. Mars

3. Quyosh sistemasining o'rtasida joylashgan Yerdagi yorug'lik va issiqlik manbaini toping.


A. Oy B. Quyosh C. Venera D. Merkuriy

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

1. Oy orbitasida to'lin oy jarayoni qanday ko'rinishda ifodalanadi?



2. Ochiq joylarga kerakli yulduzlarning nomini yozing.



To'g'ri javob: Kichik Ayiq, Oltin Qoziq, Katta Ayiq

15-mavzu: Yer po'stining harakatlari

Ushbu mavzuni mustahkamlashda standart testlar:

1. Yer po`stining ayrim joylari asta-sekin cho`kishi, boshqa qismlari esa ko`tarilishi, qayerdagi harakatlar tasirida sodir bo`ladi?

- A. Quyoshdagi harakatlar ta`sirida. B. Oydagi harakatlar ta`sirida.
C. Yadrodagi harakatlar ta`sirida D. Mantiyadagi harakatlar ta`sirida.

2. Yer po`stining gorizontal harakati natijasida, yer qatlamlari bukilib..... Nuqtalar o`rnini to`ldiring.


- A. Bu bukilish magma deb ataladi.
B. Issiq buloqlarda suv vaqt-vaqti bilan favvora kabi otilib turadi.
C. Burmali tog`larni, vodiylarni, chuqur okean botiqlarini hosil qiladi.
D. Cho`kindi jinslar hosi bo`ladi.

3. Yer yuzidagi barcha baland-pastliklar - tog`lar, tekislik, qir, vodi, soylar nima deb ataladi?

- A. Relyef B. Magma C. Lava D. Geyzer

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart test:

1. Rasmga qarab jadvalga mos raqamlarni yozing.



Vulqon vodiysi qismlari	Raqamlar
-------------------------	----------

Vulqon og`zi	
Burmalangan qatlamlar	
Yonbag`ir	
Yer tomir	
Otqindi jinslar	
Vulqon tog`i	
Magma	
Dengiz qirg`oqi	
Vulqon kanali	

To`g`ri javob:

Vulqon vodiysi qismlari	Raqamlar
Vulqon og`zi	1
Burmalangan qatlamlar	8
Yonbag`ir	3
Yer tomir	7
Otqindi jinslar	9
Vulqon tog`i	2
Magma	6
Dengiz qirg`oqi	4
Vulqon kanali	5

15-mavzu: Okean suvining xususiyatlari

Ushbu mavzuni mustahkamlashda standart testlar:

1. Dengiz va okeanlarning yuza qismidagi suv harorati nimaga bog`liq?

A. Iqlimga B. Relyefga C. Mantiya D. Yadroga

2. Quyosh nuri dengiz va okeanlarda necha metr chuqurlikkacha tushadi?

A. 200 m gacha B. 500 m gacha C. 2000 m gacha D. 1000 m gacha

3. Dengiz suvining bir litrida o`rta hisobda qancha tuz bo`ladi?

A. 35 gramm B. 30 gramm C. 25 gramm D. 10 gramm

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

№	Okean suvining xususiyatlari	№	
1	Okeanlardagi oqimlar keltiradigan suvning haroratiga qarab, iliq va sovuqqa bo`linadi.	A	Suv harorati
2	Lekin suv kam bug`lanadigan va daryolar ko`p miqdorda chuchuk suv keltirib quyadigan	B	Yorug`lik

	dengizlarda kamroq bo‘ladi.		
3	suv tagida yer qimirlashidan ham hosil bo‘ladi.	C	Suvning sho‘rligi
4	Shuning uchun o‘simliklar 200 metrgacha bo‘lgan chuqurliklarda uchraydi.	D	To‘lqinlar
5	Okeanlarning chuqur qismida +1°, -1°C atrofida bo‘ladi.	E	Dengiz oqimlari
Javob	1- 2- 3- 4- 5-		

To‘g‘ri Javob	1-E 2- C 3- D 4-B 5-A
----------------------	--

21-mavzu: Yer osti suvlari

Ushbu mavzuni mustahkamlashda standart testlar:

1. Yer osti suvlari ta‘rifi qaysi javobda keltirilgan?

- A. O‘zan deb ataluvchi chuqurlikda oqadigan suv oqimi
- B. Tabiiy chuqurlikda to‘planadigan suv
- C. Yer po‘sti yuza qismidagi tog` jinslarining g`ovak, bo‘shliq va yoriqlaridagi suvlar
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri

2. Yer osti suvlari hosil bo‘lishi uchun Jumlani to‘ldiring?

- A. Yetarli miqdorda yog`in yog`ishi zarur.
- B. Relyefda qiyalik darajasining yuqori bo‘lishi.
- C. Yuzadagi tog` jinslari suvni chuqurga o‘tkazib yuboradigan darajada g`ovak bo‘lishi zarur.
- D. A va C javoblar to‘g‘ri.

3. Quyidagi jinslarning qaysi biri suv o‘tkazmaydigan jins hisoblanadi?

- A. Yirik qum B. Shag‘al C. Qum D. Gil

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

Suv o‘tkazuvchi va suv o‘tkazmaydigan jinslarga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.

- 1. Shag‘al 2. Granit 3. Ohaktosh 4. Qum 5. Qumtosh 6. Gil

Jinslarning suv o‘tkazish xususiyatiga ko‘ra turlari	Javob
---	--------------

	raqamlari
Suv o'tkazuvchi jinslar	
Suv o'tkazmaydigan jinslar	

Javobi:

Jinslarning suv o'tkazish xususiyatiga ko'ra turlari	Javob raqamlari
Suv o'tkazuvchi jinslar	1,4
Suv o'tkazmaydigan jinslar	2,3,5,6

26-mavzu: Shamollar va havo massalari

Ushbu mavzuni mustahkamlashda standart testlar:

1. Havoning gorizonttal harakatiga nima deyiladi?

- A. Shamol B. Oqim C. Yardang D. Havo massalari.

2. Shamol vujudga kelishining asosiy sababi nimada?

- A. Yer yuzida yog`inning noto`g`ri taqsimlanishi.
 B. Yer yuzasining turli joylarida havo bosimida farq bo`lishi.
 C. Havo tarkibidagi suv bug`lari miqdorining har xilligi.
 D. Havo tarkibini tashkil qiluvchi gazlarning har xilligi.

3. Biriz shamoli kunduzi qaysi yo`nalishda esadi?


- A. Briz shamoli kunduzi esmaydi. C. Quruqlikdan dengizga.
 B. Ko`l va dengiz ustidan quruqlik tomon. D. Barcha javoblar to`g`ri.

4. Katta quruqliklar – materiklarda nima uchun yozda atrofida dengizlarga qaraganda havo bosimi pasayadi?

- A. Chunki quruqliklar yozda sovib ketadi.
 B. Chunki quruqliklar yuzasi tekis.
 C. Chunki quruqliklarda yozda yog`in yog`maydi.
 D. Chunki quruqliklar ko`proq isiydi.

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

5. Esayotgan shamol yo`nalishini aniqlaydigan flyuger deb ataladigan asbobni toping?



6. Quyida berilgan fikrlarning qaysi biri to'g'ri?

- A. Havoning vertikal harakatiga shamol deyiladi.
- B. Bir kecha-kunduzda o'z yo'nalishini ikki marta o'zgartirib turadigan shamolga briz shamoli deyiladi.
- C. Bir yilda o'z yo'nalishini ikki marta o'zgartiradigan shamollarga passat shamollari deyiladi
- D. O'rta kengliklarda Shimoliy yarimsharda ham, Janubiy yarimsharda ham doim g'arb tomondan shamollar esib turadi. Bular G'arbiy shamollar deyiladi.
- E. Shamolning tezligi flyuger yordamida o'lchanadi
- F. Havo massalari okeanlar va quruqlik ustida paydo bo'lishiga qarab dengiz va kontinental havo massalariga bo'linadi.

Javobi: _____

To'g'ri javob: B, D, F

31-mavzu: Organizmlarning Yer qobiqlariga ta'siri

Ushbu mavzuni mustahkamlashda standart testlar:

1. O'simlik va hayvonlar, mikroorganizmlar atmosferaga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- A. Qatlamlarning o`rniga B. Iqlimga
C. Havo bosimiga D. Gaz tarkibiga

2. Hozirgi vaqtda dunyodagi o`rmonlarning qancha qismi kesib yuborilgan?

- A. 1/10 qismi B. 1/20 qismi C. 2/5 qismi D. 2/3 qismi

3. Havodagi qaysi gazni o`simlik hosil qilgan va uni doimo yangilab turadi?

- A. Azotni B. Neonni C. Kislorodni D. Ksenonni

Ushbu mavzuni mustahkamlashda nostandart testlar:

4. Quyidagi berilgan fikrlarning qaysilari to`g`ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo`q” so`zlarini yozing.

1. O`simliklar havodan karbonat angidridni olib, o`rniga kislorod chiqaradi.
2. Hozirgi vaqtda dunyodagi o`rmonlarning uchdan ikki qismi qirqib yuborilgan.
3. O`simliklar karbonat angidridni olib, kislorod chiqarsa, hayvonlar, aksincha, havodan azotni olib, karbonat angidrid chiqaradi.
4. Daryolar suvida kalsiy tuzlari eng ko`p.
5. Okeandagi organizmlar suvdan o`zlariga kerakli moddalarni, ayniqsa, magniy tuzlarini oladi.
6. Toshko`mir, qo`ng`ir ko`mir, slanets, torf lar ham o`simlik qoldig`idir.
7. Ko`mir yemirilgan tog` jinsi zarralaridan va gumus (chirindi)dan iborat.
8. Tuproqda chirindi qanchalik kam bo`lsa, u shuncha unumdor hisoblanadi.

1	2	3	4	5	6	7	8

To`g`ri javob:

1	2	3	4	5	6	7	8
ha	ha	yo`q	ha	yo`q	ha	yo`q	yo`q

2.2. Nazorat ishlarida standart va nostandart testlardan foydalanish

Umumta'lim maktablarining 5-sinfida o'quvchilarga "Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi" o'qitiladi. Ushbu kursda 4 ta nazorat ishi belgilangan.

Nazorat ishi № 1

Mavzu: Yer qanday o'rganilgan? Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora.

Nazorat shakli: Geografik diktant.

1. Eramizdan avvalgi III asrda Eratosfen tomonidan tuzilgan dunyo xaritasidatasvirlangan.
2.1492-yilda boshchiligida ekspeditsiya Hindistonga dengiz orqali yo'l topish maqsadida Ispaniyadan g'arbga tomon suzib ketadi.
3. bobokalonimiz o'z asarlarida Farg'ona vodiysi Afg'oniston, Hindiston tabiati haqida ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirgan.
4. O'rta Osiyolik Nosir Xisrav sayohat qilib, ko'plab geografik ma'lumotlar to'plagan.
5. Geografiya atamasini birinchi bo'lib fanga kiritgan.
6. Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofa ga teng.
7. Quyoshga eng yaqin va eng uzoq sayyora.....
8. Simoliy qutb bilan janubiy qutbni tutashtiruvchi Yer yuzidan o'tkazilgan yarim aylana chiziqlar deyiladi.
9. London shahri yaqinidagi Grinvich rasadxonasi meridian deb qabul qilingan.
10. Quyosh ikkala yarimsharni kunlar bir xilda yoritadi.


Nostandart testlardan tuzilgan nazorat ishi №1

1. Miloddan avvalgi 3-asrda Eratosfen tuzgan dunyo xaritasi 1 raqamida yashiringan orol, 2 raqamida yashiringan tog', 3 raqamida yashiringan dengiz, 4 raqamida yashiringan daryoni toping.



To'g'ri javob: Albion oroli, Tavr tog'lari, Eritreya dengizi, Yaksart daryosi

2. Milodiy 2-asrda Ptolomey tuzgan dunyo xaritasi 1 raqamida yashiringan okean, 2 raqamida yashiringan qit'a, 3 raqamida yashiringan dengizni toping.




To'g'ri javob: G'arbiy oroli, Liviya, Hindiston dengizi

3. Oy orbitasida to'lin oy jarayoni qanday ko'rinishda ifodalanadi?



To'g'ri javob: a)

4. Ochiq joylarga kerakli yulduzlarning nomini yozing.




To'g'ri javob: Kichik Ayiq, Oltin Qoziq, Katta Ayiq

5. M. Xorazmiyning O'rta Osiyo va unga yondosh yerlar xaritasi "?" belgisi ostida dengizning nomi va hozirgi nomini yozing.



To'g'ri javob: Xorazm dengizi, hozirgi Kaspiy dengizi

6. Ushbu xarita kim tomonidan tuzilgan?



To'g'ri javob: Abu Rayhon Beruniyning dunyo xaritasi.

7. Bu xaritada kimning sayyohati ko'rsatilgan?



To'g'ri javob: Nosir Xisrav sayyohati

8. Ushbu jadvalni Yerning Quyosh atrofida yillik aylanishiga asosan to'ldiring.

Yerning Quyosh atrofida aylanayotgan turli vaqtlaridagi holati	Sana
	22-dekabr
	22-iyun
	21-mart
	23-sentabr

To'g'ri javob:

Yerning Quyosh atrofida aylanayotgan turli vaqtlaridagi holati	Sana
Quyoshning qishki turish kuni	22-dekabr
Yozgi Quyosh turishi kuni	22-iyun
bahorgi teng kunlik	21-mart
kuzgi teng kunlik	23-sentabr

Nazorat ishi №2

Ushbu test topshirig'i standart test topshiriqlarida iborat

Mavzu: Joy plani va geografik xaritalar. Litosfera.

Nazorat shakli: Test topshirig'i.

1. Agar maktabga 315° azimut bilan borgan bo'lsa, ortga qanday azimut bilan qaytish lozim.

A) 135° ; B. 270° ; C. 225° ; D. 45° .

2. 1:10000 masshtabli xaritaning 2 sm da qancha masofa bor?

A) 20 metr; B. 200 metr; C. 2 kilometr; D. 20 kilometr;

3. Agar kompas ustiga gugurt cho'pi q'oyib uchini 90° ga to'g'rilasak, gugurtning ikkinchi uchi qaysi azimutni ko'rsatadi?

A) 45° ; B. 180° ; C. 270° ; D. 0° .

4. Quyidagi asboblardan qaysisi bir-biriga yaqin turgan ikki predmet orasidagi masofani o'lchashda ishlatiladi?

A) Kompas; B. Kurvimetr C. Ruletka D. Masshtab

5. 225° azimut ufqning qaysi tomonida tog'ri keladi?

A) Janub B. Shimoliy sharq C Sharq D. Janubiy –g'arbiy

6. Olimlarning taxmin qilishlaricha Yer yadrosining harorati qanchaga teng?

A) 4000⁰S ; B. 2500⁰S; C. 3000⁰S; D. 2500⁰S.

7. Seysmik so`zining ma`nosi nima?

A) Ko`tarilish; B. Tebranish; C. Vulqon otilishi;
D. Yorilish.

8. Quruqliklarning okean sathidan va okeanlar bilan tutashgan dengizlar sathidan tik balandligi.....deyiladi.

A. cho`kmalar; B. Mutloq balandlik;
C. Nisbiy balandlik; D. Gorizontallar.

9. Okean tubida qaysi qatlam yo`q?

A. mantiya; B. Cho`kindi qatlam; C. Bazalt qatlami;
D. granit qatlam.

10. Quyidagi jinlardan qaysi biri otqindi jins?

A. marmar; B. Ohaktosh; C. Granit; D. Qumtosh.

Javobi yoziladigan testlar.

11. Mutloq balandligi bir xil bo`lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlar nima deb ataladi?

12. Yonbag`ir qiyaligi qanday belgi bilan ko`rsatiladi?


13. Yer po`sti qanday qatlamlardan iborat?

14. Toshkentdan Termizga bormoqchi bo`lgan yo`lovchilar qaysi tomonga yurishi kerak?

15. Daraja t o`ri qanday chiziqlardan hosil bo`ladi?

Nostandart testlardan tuzilgan nazorat ishi №2

1. Rasmga qarab jadvalga mos raqamlarni yozing.



Vulqon vodiysi qismlari	Raqamlar
Vulqon og`zi	
Burmalangan qatlamlar	
Yonbag`ir	
Er tomir	
Otqindi jinslar	
Vulqon tog`i	
Magma	
Dengiz qirg`oqi	
Vulqon kanali	

To`g`ri javob:

Vulqon vodiysi qismlari	Raqamlar
Vulqon og`zi	1
Burmalangan qatlamlar	8
Yonbag`ir	3
Er tomir	7
Otqindi jinslar	9
Vulqon tog`i	2
Magma	6
Dengiz qirg`oqi	4
Vulqon kanali	5

2. Quyidagi berilgan fikrlarning qaysilari to`g`ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo`q” so`zlarini yozing.


1. Azimut — joydagi ikki yo`nalish orasida hosil bo`lgan burchak.
2. Ufqning 4 ta asosiy tomoni va 2 ta oraliq tomonlari bor.
3. Masshtab ikki xil ko`rinishda bo`ladi: sonli masshtabva chiziqli masshtab.
4. Joy planini turli usullarda tuzish mumkin. Bu usullardan biri qutbiy usul deb ataladi.

1	2	3	4

To`g`ri javob:

1	2	3	4
ha	yo'q	yo'q	ha

3. Tepalikning nisbiy va mutlaq balandligi qanday rangdagi chiziqlarda ko'rsatilgan?



To'g'ri javob: Tepalikning nisbiy balandligi qora chiziqda va mutlaq balandligi oq chiziqda ko'rsatilgan.

4. Quyidagi hodisa yoki obyektlar geografik xaritada qanday shartli belgilar bilan ko'rsatiladi?

№	Tasvirlanadigan hodisa yoki obyekt	№	Shartli belgilaa	
1	turli obyekt va hodisalarning harakati, siljishi harakati	A	izobara	
2	havo bosimi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiradigan chiziqlar	B	izoterma	
3	havo harorati bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtirgan chiziqlar	C	strelka	
4	Aholining irqiy va diniy mansubligi, issiqlik mintaqalari, tabiat zonalari	D	turli ranglar	
Javob	1-	2-	3-	4-

To'g'ri javob: 1- C 2- A 3- B 4-D

5. Quyidagi raqamlarga mos balandliklarni keltiring.

Balandliklar	Mos keluvchi relyef shakllari
500 m dan 1000 m gacha bo'lsa	

1000 m dan 2000 m gacha bo'lsa	
Tekisliklar balandligi 200 m dan 500 m gacha bo'lsa	
2000 m dan 3000 m gacha bo'lsa	
dengiz sathidan balandligi 200 m dan oshmasa	
Ba'zi bir teki sliklarning dengiz sathidan balandligi 500 m dan ham ortiq bo'ladi	
3000 m dan yuqori bo'lsa	

To'g'ri javob:

Balandliklar	Mos keluvchi relyef shakllari
500 m dan 1000 m gacha bo'lsa	past tog'lar
1000 m dan 2000 m gacha bo'lsa	o'rtacha tog'lar
Tekisliklar balandligi 200 m dan 500 m gacha bo'lsa	qirlar
2000 m dan 3000 m gacha bo'lsa	o'rtacha baland tog'lar
dengiz sathidan balandligi 200 m dan oshmasa	pasttekislik
Ba'zi bir teki sliklarning dengiz sathidan balandligi 500 m dan ham ortiq bo'ladi	Bunday baland tekisliklar yassi tog'lik deb yuritiladi
3000 m dan yuqori bo'lsa	baland tog'lar

Nazorat ishi № 3

Ushbu test topshirig'i standart test topshiriqlarida iborat

Mavzu: Yerning suv qobig'i- gidrosfera.

Nazorat shakli: Test topshiriqlari.

1. Dunyo okeanining eng chuqur botig'ini aniuqlang.

- A. Puerto-Riko botig'i; B. Zond botig'i;
C. Marianna botig'i; D. Peru botig'i.

2. Zond botig`i qaysi okeanga tegishli?

- A. Hind okeani; B. Shimoliy muz okeani;
C. Tinch okeani; D. Atlantika okeani;

3. deb okean, dengiz va ko`llarning quruqlik ichkarisiga kirib borgan kichik va sayoz qismlariga aytiladi.

- A. Ichki dengizlar; B. Bo`g`izlar; C. Qo`ltiqlar; D. Kanallar;

4. Materik yonbag`ri deb necha metr chuqurlikkacha bo`lgan joylarga aytiladi?

- A. 100-1500 m; B. 150-2200 m; C. 200-2500 m; D. 300-3500 m;

5. Yorug`lik okean va dengizlarda necha metrgacha tushadi?

- A. 200 m; B. 500 m C. 1000 m; D. 300 m;

6. Dengiz suvining har bir litrida qancha tuz bo`ladi?

- A. 15 gramm; B. 20 gramm; C. 35 gramm; D. 45 gramm;

7. Qaysi oqim uzunligi 30 ming km dan ortadi?

- A. Golfstrim; B. G`arbiy shamollar;
C. Shimoliy passat; D. Janubiy passat;

8. Berilgan oqimlardan sovuq oqimni aniqlang.

- A. Kanar oqimi; B. Kurosiyo oqimi;
C. Shimoliy passat oqimi; D. Janubiy passat oqimi;

9. 1960-yil "Triyest" batiskafida qaysi okean botig`i aniqlangan?

- A. Hind okeani; B. Shimoliy muz okeani;
C. Tinch okeani; D. Atlantika okeani;

10. Yer yuzasidagi g`ovak jinslar orasidagi suvlar deb ataladi.

- A. artezian quduqlar; B. Suv qatlamlar;
C. Mineral suvlar; D. grunt suvlar;

Javobi yoziladigan testlar

11. O`zan deb ataluvchi chuqurlikdan oqayotgan suv oqimiga nima deb ataladi?
12. Dunyodagi eng baland sharshara qaysi?
13. Daryo o`z suvini biron joyga quysa o`sha joy nima deb ataladi?
14. O`rta Osiyodagi eng katta muzlik qaysi tog`da joylashgan?

15. Aysberg nima?

Nostandart testlardan tuzilgan nazorat ishi №3

1. Okean suvlarining xususiyatlarini to'g'ri izohlang.

№	Okean suvining xususiyatlari	№	
1	Okeanlardagi oqimlar keltiradigan suvning haroratiga qarab, iliq va sovuqqa bo'linadi.	A	Suv harorati
2	Lekin suv kam bug'lanadigan va daryolar ko'p miqdorda chuchuk suv keltirib quyadigan dengizlarda kamroq bo'ladi.	B	Yorug'lik
3	suv tagida yer qimirlashidan ham hosil bo'ladi.	C	Suvning sho'rliigi
4	Shuning uchun o'simliklar 200 metrgacha bo'lgan chuqurliklarda uchraydi.	D	To'lqinlar
5	Okeanlarning chuqur qismida $+1^{\circ}$, -1°C atrofida bo'ladi.	E	Dengiz oqimlari
Javob	1- 2- 3- 4- 5-		

To'g'ri Javob	1-E 2- C 3- D 4-B 5-A
----------------------	--

2. Suv o'tkazuvchi va suv o'tkazmaydigan jinslarga mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga yozing.

1. Shag'al 2. Granit 3. Ohaktosh 4. Qum 5. Qumtosh 6. Gil

Jinslarning suv o'tkazish xususiyatiga ko'ra turlari	Javob raqamlari
Suv o'tkazuvchi jinslar	
Suv o'tkazmaydigan jinslar	

To'g'ri javob:

Jinslarning suv o'tkazish xususiyatiga ko'ra turlari	Javob raqamlari
Suv o'tkazuvchi jinslar	1,4
Suv o'tkazmaydigan jinslar	2,3,5,6

3. Quyidagi raqamlarni jadvalga to'g'ri joylashtiring.


96,5; 3,5; 1340; 47,5

Gidrosfera qismlari	Suv miqdorining nisbati, % his.	Suv miqdori, mln. km ³
Dunyo okeani		
Quruqlikdagi suvlar:		


To'g'ri javob:

Gidrosfera qismlari	Suv miqdorining nisbati, % his.	Suv miqdori, mln. km ³
Dunyo okeani	96,5	1340
Quruqlikdagi suvlar:	3,5	47,5

4. Ushbu rasmlarda nimalar tasvirlangan?



To'g'ri javob:



Nazorat ishi № 4

Ushbu test topshirig'i standart test topshiriqlarida iborat

Mavzu: Atmosfera. Biosfera. Tabiat komplekslari

Nazorat shakli: Test topshiriqlari.

1. Atmosfera so'zining ma'nosi qaysi javobda keltirilgan?

A. Yunoncha –“atmos” – suv, “sphaira”- shar ma'nosini bildiradi.

- B. Yunoncha –“atmos” – bug`, “sphaira”- shar ma`nosini bildiradi.
 C. Yunoncha –“atmos” – tosh, “sphaira”- shar ma`nosini bildiradi.
 D. Yunoncha –“atmos” – shar, “sphaira”- bug` ma`nosini bildiradi.

2. Havo harorati sutkaning qaysi paytida eng yuqori bo`ladi?

- A. Ertalab soat 8 larda. C. Kechqurun soat 20 larda.
 B. Tush payti soat 12 larda. D. Kunduzi soat 14 va 15 larda.

3. Biriz shamoli kunduzi qaysi yo`nalishda esadi?

- A. Briz shamoli kunduzi esmaydi. C. Quruqlikdan dengizga.
 B. Ko`l va dengiz ustidan quruqlik tomon. D. Barcha javoblar to`g`ri.

4. Agar havo harorati +20 C bo`lsa necha gramm suv bug`ini tutib tura oladi?

- A. 30 gramm B. 5 gramm C. 9 gramm D. 17 gramm

5. Agar ob–havo bir necha kun o`zgarmay bir xil tursa, uni qanday qanday ob –havo deb ataladi?

- A. Barqaror ob–havo. C. Kontinental iqlim.
 B. Dengiz iqlimi. D. Barqaror ob–havo.

6. Troposferaning o`rtacha qalinligini toping?

- A. 8-9 km B. 17-18 km S. 5-6 km D. 10-11 km

7. Maxsus meteorologik qutining eshigi qaysi tomonda bo`ladi?

- A. Yuqorida B. Pastda
 C. Shimol tomonda D. Sharq tomonda.

8. Bir kecha-kunduzda o`z yo`nalishini ikki marta o`zgartirib turadigan shamol qanday ataladi?

- A. Passat B. Musson C. Fyon D. Briz.

9. Namga to`yingan havoda nisbiy namlik necha foiz bo`ladi?

- A. 25 % B. 50 % C. 70 % D. 100 %

10. Ob–havoning biror joyga xos bo`lgan ko`p yillik rejimi (holati) qanday ataladi?





- A. Namlik B. Barqaror ob – havo C. Yog`in D. Iqlim

Javobi yoziladigan testlar:

11. Tuproq tarkibi nimalardan iborat?
12. Troposferadan yuqorida qaysi qatlam joylashgan?
13. Sutkalik o`rtacha harorat qanday topiladi?
14. Havo bosimi deb nimaga aytiladi?
15. Qayerda 1 m kub havoning massasi 1 kg 330 grammga teng?

Nostandart testlardan tuzilgan nazorat ishi № 4

1. Esayotgan shamol yo`nalishini aniqlaydigan flyuger deb ataladigan asbobni toping?



2. Quyida berilgan fikrlarning qaysi biri to`g`ri?

- A. Havoning vertikal harakatiga shamol deyiladi.
- B. Bir kecha-kunduzda o`z yo`nalishini ikki marta o`zgartirib turadigan shamolga briz shamoli deyiladi.
- C. Bir yilda o`z yo`nalishini ikki marta o`zgartiradigan shamollarga passat shamollari deyiladi
- D. O`rta kengliklarda Shimoliy yarimsharda ham, Janubiy yarimsharda ham doim g`arb tomondan shamollar esib turadi. Bular G`arbiy shamollar deyiladi.
- E. Shamolning tezligi flyuger yordamida o`lchanadi

F. Havo massalari okeanlar va quruqlik ustida paydo bo‘lishiga qarab dengiz va kontinental havo massalariga bo‘linadi.

Javobi: _____

To‘g‘ri javob: B, D, F

3. Quyidagi berilgan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.


1. O‘simliklar havodan karbonat angidridni olib, o‘rniga kislorod chiqaradi.
2. Hozirgi vaqtda dunyodagi o‘rmonlarning uchdan ikki qismi qirqib yuborilgan.
3. O‘simliklar karbonat angidridni olib, kislorod chiqarsa, hayvonlar, aksincha, havodan azotni olib, karbonat angidrid chiqaradi.
4. Daryolar suvida kalsiy tuzlari eng ko‘p.
5. Okeandagi organizmlar suvdan o‘zlariga kerakli moddalarni, ayniqsa, magniy tuzlarini oladi.
6. Toshko‘mir, qo‘ng‘ir ko‘mir, slanets, torf lar ham o‘simlik qoldig‘idir.
7. Ko‘mir yemirilgan tog‘ jinsi zarralaridan va gumus (chirindi)dan iborat.
8. Tuproqda chirindi qanchalik kam bo‘lsa, u shuncha unumdor hisoblanadi.

1	2	3	4	5	6	7	8


To‘g‘ri javob:

1	2	3	4	5	6	7	8
ha	ha	yo‘q	ha	yo‘q	ha	yo‘q	yo‘q

4. Doimiy yuqori va past bosim mintaqalarini to'g'ri joylashtiring.



To'g'ri javob:



2.3 Pisa testlari va ulardan o'quv jarayonida foydalanish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

O'z navbatida, Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markaziga ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish va boshqa vazifalar yuklatildi.

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment PISA 2021) ishtirok etish to'g'risidagi kelishuvga erishildi.

PISA (Programme for International Student Assessment) o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi o'n besh yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqot dasturi bo'yicha

loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni rivojlantirishga undaydi.

Har uch yilda amalga oshiriladigan PISA dasturi mamlakatlarga ta'lim tizimi yutuq va kamchiliklari haqida o'z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta'lim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekistonda PISA tadqiqotlari 2021-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

PISA tadqiqoti (Programme for International Student Assessment) – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTT tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.

Tadqiqot ilk bor 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib, har uch yilda bir marotaba o'tkazib boriladi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan.

PISA tadqiqoti quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;
- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etadilar;
- tadqiqotda o'quvchilarning “hayotga tayyorlik” darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;
- tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy fanlar yo'nalishdagi va global muammolarni hal etish sohasidagi funkstional savodxonligi baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi.

O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi quyidagilarga imkon yaratib beradi:

□ O'zbekiston umumta'lim maktablari bitiruvchilarining ta'lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyorligini aniqlash;

□ mamlakatdagi umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;

□ o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini aniqlash biologiya, fizika, kimyo va geografiya fanlari doirasida olib boriladi. Bunda tuziladigan testlarning 35 % i biologiyaga, 25 % i fizika faniga, 20 % i kimyoga va 20 % i geografiya faniga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rinishiga testlarning 35 % ini nazariy bilimlar, 40 % ini egallangan bilimlarni qo'llashga oid testlar tashkil etsa, 25 % i ni fikrlash, mulohaza yuritishga doir testlar tashkil etadi.

Quyida ushbu tadqiqotlarda qo'llanilgan testlardan misollar keltirildi:


1. 2015-yilgi tadqiqotlar o'quvchilarga berilgan pisa testi:



Bunda o'quvchilarning egallagan nazariy bilimi baholangan. Quyosh atrofida Yer singari aylanadigan 2 ta sayyorani keltirish kerak.

1. 2015-yilgi tadqiqotlar o'quvchilarga berilgan pisa testi:

В артезианском бассейне подземные воды находятся в слоях горных пород. На рисунке показан участок артезианского бассейна.



А. Когда люди опускают трубы в слой горных пород, вода течёт вверх по трубе и выливается на землю.



Что двигает воду вверх по трубе?


- (A) электричество
- (B) магнетизм
- (C) давление
- (D) сила тяжести

Ushbu test egallangan nazariy bilimlarni amalda qo'llash faoliyat turiga kiradi.

Faoliyat sohalari bo'yicha tuzilgan pisa testlari:

Bilim sohasi bo'yicha:


1. Ushbu holatda nima o'lchanmoqda?



A. Bosim B. Harorat C. Namlik D. Yog'in

2. Qo'llash sohasi bo'yicha:


Ushbu rasm bo'yicha shamol qaysi yo'nalishda esadi?




- A. Quruqlikdan suvlikka
- B. Suvlikdan quruqlikka
- C. Bunday holatda shamol esmaydi
- D. Quruqlikdan quruqlikka

3. Fikrlash, mulohaza qilish bo'yicha:

Ushbu rasmlarni tahlil qilib qaysi birida shamolning kuchliroq esishini ko'rsating.



1-rasm.




2-rasm.

- A. 1-rasmda
- B. 2-rasm
- C. Har ikki holatda ham shamolning tezligi bir xil.
- D. Ikki holatda ham shamol esmaydi.



“Tabiiy geografiya boshlang`ich kursi” dan tuzilgan pisa testlari:

1. Ushbu rasmda eramizning II asrda tuzilgan xarita tasvirlangan. Bu xaritaning muallifi kim?




A) Erotosfen B) Ptolomey C) Xorazmiy D) Abu Rayxon Beruniy

2. 1519-1522-yillarda kim dunyoni garbdan sharqqa tomon aylanib chiqqan ?




A) Magellan B) X.Kolumb C) Vasko da Gamma

3. Quyidagi rasmda B harfi bilan daryoning qaysi elementi tasvirlangan?



A) daryoning manbai
B) daryoning o`zani
C) daryoning mansabi
D) daryoning havzasi

4. Kattaligi jihatidan qaysi materik 2-o`rinda turadi?



TOPOGRAFIK SHARTLI BELGILAR BO'YICHA PISA TEST

1. Turar joyni shartli belgisini toping?

- a) b) d) $\triangle 160,6$ s)

2. Igna bargli o'rmonni toping?

- a) b) d) s)

3. Aloqa linyalarini toping?

- a) b) d) s)

4. O'tga chidamsiz binolarni belgilang?

- a) b) d) s)

5. Shamol sindirgan daraxtni belgilang?

- a) b) d) s)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi vaqtda pedagoglarning faoliyatining ajralmas qismi bu test texnologiyalar foydalanishidir. Test topshiriqlari o'quvchilar bilimini baholashda ayniqsa o'qituvchiga muhim ko'makchi hisoblanadi. O'rganilgan yangi mavzuni mustahkamlashda, nazorat ishlarida, o'quvchilar bilimini monitoring qilishda, iqtidorli o'quvchilarni fan olimpiadalari va bilimlar bellashuvlari ishtirok etish uchun saralab olishda va tayyorlash test topshiriqlari muhim o'rin tutadi. O'qituvchining yuqori ta'kidlangan maqsadiga erishishida test texnologiyasi qanchalik muhimligi, uning salbiy va ijobiy tomonlari haqida xilma-xil fikrlar mavjud.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda umumta'lim maktablarining 5-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi" da o'rganiladigan mavzularni mustahkamlashda standart va nostandart test topshiriqlarini tuzish, uni qo'llash, afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatishni o'z oldinga maqsad qilib qo'ydim. Buni ushbu kursda tatbiq qilishimga sabab birinchidan boshlang'ich bosqichdan yuqori bosqichga o'tgan o'quvchilar shu kurs orqali geografiya olamiga kirib kelishadi. Ana shu vaqtdan boshlab ularda yuqorida ta'qidlangan vazifalarni tatbiq qilishni boshidan boshlashga imkon bo'ladi. Ikkinchidan ushbu kurs keyingi sinflarda o'qitiladigan geografiya fanlarini tushunish uchun asos, poydevor hisoblanadi.

"Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursi (5-sinf)"da standart va nostandart testlardan foydalanish" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishni bajarish asnosida quyidagi xulosaga kelindi:

1. Bundan keyin ham pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo'lgan test topshiriqlari ta'lim tizimining barcha jabhalarida, barcha o'quv fanlarida bilimlarni tekshirishning asosiy usuli bo'lib qolaveradi.

2. Test texnologiyasi pedagogga dars jarayonini tashkil etishida, baholashida va o'quvchilar bilimini nazorat qilishida a'lo darajadagi

ko'makchidir. Test topshiriqlarining ijobiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- Qisqa vaqtda ko'p o'quvchini baholash mumkin. Test topshiriqlarining afzallik tomonlaridan biri o'qituvchiga bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchini yoki butun auditoriyani nisbatan qisqa vaqt davomida baholash imkonini beradi. O'qituvchining topshiriqlarni tekshirish jarayonini osonlashtiradi. (30 nafar o'quvchidan og'zaki so'rov usulida qancha vaqt ketishini yoki yozma topshiriqlarni tekshirish ketadigan vaqt hamda o'quvchilarning husnixati bilan bog'liq muammolarni hal etadi).

- Mavzuni to'liq qamrab olish mumkin.
- O'quvchining darajasiga qarab tabaqalashtirish mumkin.
- Test topshiriqlari orqali o'quvchilarning bilimini baholashda ular tomonidan norozilik bildirilishining oldini oladi ya'ni o'quvchi tomonidan “menga ataylab qiyin savol berdingiz” kabi e'tirozlar bildirilishiga o'rin qoldirmaydi.

3. Test topshiriqlari o'z navbatida salbiy xususiyatlarga ham ega. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- O'quvchilarning ko'chirishiga imkoniyat mavjud bo'ladi.
- Tasodifiy to'g'ri javob topish imkoniyati ayniqsa javob variantlari kamaygan sari ortib boradi.
- Og'zaki va yozma nutqning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalarni ilova qilmoqchimiz:

1. Shuni ham aytib o'tish lozimki, barcha fanlardan bo'lgani kabi geografiya fanidan ham test topshiriqlarini tuzish bo'yicha aniq bir metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar ishlab chiqish zarur.

2. Umuman olganda geografiya darslarida o'qituvchi mavzuni mustahkamlashda boshqa usullar bilan birgalikda test topshiriqlaridan ham foydalanadi. Aksariyat hollarda ko'pchilik o'qituvchilar tomonidan standart

testlardan foydalaniladi. Ammo standart testlar ko'pchilik holatda bizga vaziyatni aniq baholashga imkon bermaydi. Taxminiy javob berish, ko'chirish, oddiygina mohiyatini eslab qolish orqali erishilgan yuqori ko'rsatkich ta'lim sifatining ham yuqoriligini ko'rsatmaydi. Shuni inobatga olib mavzuni mustahkamlashda standart testlar bilan birga nostandart testlar foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3. Nostandart testlardan foydalanish birinchi navbatda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, mavzuda o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ishlay olish, o'z fikrini bayon eta olish, muayyan jarayon, obyekt yoki voqeaning mohiyatini tushuntira olish, mazkur jarayon, obyekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatini ajratib ko'rsata olish kabi ijobiy fazilatlarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

4. Shu bilan birga nostandart test topshiriqlarini tuzish o'qituvchida ijodkorlik (kreativlik)ning shakllantirib, rivojlantiradi, o'z ustida ishlashga, o'zining ishiga tanqidiy munosabatda bo'lishiga olib keladi. Ayni paytda o'qituvchiga mavzuni o'qitishda yo'l qo'ygan kamchiliklarini aniqlashga imkon beradi hamda iqtidorli o'quvchilarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimni bajarishda yaqindan yordam bergan barcha ustozlarimga o'z minnatdorchiligimni bildiraman hamda kelajakda o'zimning pedagogik faoliyatim davomida o'z ishimga ma'suliyat bilan qarab, doimo izlanishda, yangi g'oyalarni amaliyotda qo'llashga harakat qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016, – 56 b.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб –интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак.. – Т.: Ўзбекистон, 2017, – 104 б.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017, – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017, – 488 b.

Me'yoriy hujjatlar:

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли фармони
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги 997-сон “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори

Asosiy adabiyotlar:

7. Аванесов В.С. Современные методы обучения и тестового контроля знаний. Владивосток, 1999, – 125 с.
8. Аванесов В.С. Композиция тестовых заданий. 2 изд. М. Адепт. 1998, – 217 б.
9. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat va. T., – 2006.
10. Bahromov Q., Shodiyeva N. Maktab geografiya ta'limi.Toshkent."Navro'z" – 2015-yil. 260 bet.
11. Толипова Ж.О. Педагогик квалиметрия. Т.:, 2016, – 116 б.


12. Tabiiy geografiyaning boshlang`ich kursidan atlas. T.:, 2017, – 40 b.
13. Ўқувчиларнинг саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқот дастури ҳақида қўлланма. T.:, 2019, – 68 б.
14. G`ulomov P., Qurbonniyozov R. “Tabiiy geografiya” boshlang`ich kursi. Qayta ishlangan va to`ldirilgan 4-nashri.T.:, “Yangiyo`l poligraf servis” , 2015, - 104 bet.

Internet saytlari

15. [http:// www.oecd.org/pisa](http://www.oecd.org/pisa)
16. [http:// www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
17. [http:// www. pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)


ILOVALAR

1-ilova



1-rasm. Xalqaro baholash dasturlari

2-ilova



2-rasm. PISA tadqiqotlarida ishtirokchi davlatlar soni

3-ilova



3-rasm. PISAda o'quvchilarning bilim sifati monitoringi aniqlanadigan yo'nalishlar.

4-ilova


<u>O'rin</u>	<u>Mamlakat</u>	<u>O'rtacha ball</u>
1	<u>Singapur</u>	556
2	<u>Yaponiya</u>	538
3	<u>Estoniya</u>	534
4	<u>Tayvan</u>	532
5	<u>Finlandiya</u>	531
6	<u>Makao (Xitoy)</u>	529
7	<u>Kanada</u>	528
8	<u>Vyetnam</u>	525
9	<u>Gonkong (Xitoy)</u>	523
10	<u>Xitoy</u>	518

4-rasm. Tabiiy-ilmiy savodxonlik yo'nalishi 2015-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari (Manba: <http://www.oecd.org/pisa/>)

2017-2018-o'quv yili ta'lim sifati monitoringida 8-10-sinf o'quvchilarning kompetentligini aniqlash maqsadida tuzilgan test topshiriqlari to'g'risida

ma'lumot

(fanlar kesimida tuzilgan testlar soni)



6-ilova

2017-2018-o'quv yili ta'lim sifati monitoringida 8-10-sinf o'quvchilarning kompetentligini aniqlash maqsadida tuzilgan test topshiriqlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari
(fanlar kesimida)

